

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB
TA’LIMI VAZIRLIGI
QORI NIYOZIY NOMIDAGI TARBIYA PEDAGOGIKASI MILLIY
INSTITUTI**

TARBIYAGA OID HIKMATLAR

TARBIYAGA OID HIKMATLI SO‘ZLAR

Najmiddin Kubro hikmatlari

Iltilmosga qolgan kunda o‘limni, bosiqlik va ta‘masizlikda barhayotlikni ko‘rdim.

Husni xulqdan yaxshilik ustiga yaxshilik qo‘shadigan, hasaddan ko‘ra yomonlik ustiga yomonlik qo‘shadigan narsani ko‘rmadim.

Chun haq va talab yo‘liga kirmoq joiz,

Dunyo etagin tutib, yugurmok joiz.

Ko‘rmoqqa o‘zingni sa‘y etgil, zero,

Olam ko‘zi birlan uni ko‘rmoq joiz!

Bilim, ma‘rifat yaxshi axloq bilan bezanmog‘i lozim.

Abu Nasr Farobiyning ta‘lim-tarbiyaga oid qarashlari

Madaniy jamiyat shunday bo‘ladiki, shu mamlakatning aholisidan bo‘lgan har bir odam kasb-hunardan ozod, hamma barobar bo‘ladi. Har kim o‘zi istagan yoki tanlagan kasbu hunar bilan shug‘ullanadi. Odamlar chin ma‘nosi bilan ozod bo‘ladilar.

Har kimki ilm hikmati o‘rganaman desa, uni yoshligidan boshlasin. Sog‘-salomatligi yaxshi bo‘lsin, yaxshi axloq va odobi bo‘lsin, barcha qonun-qonun-qoidalarni bilsin, bilimdon va notiq bo‘lsin, ilmi va dono kishilarni hurmat qilsin, ilm va ahli ilmdan mol-dunyasini ayamasin.

Jaloliddin Rumi hikmatlari.

Xamma yaxshiliklar sabrdan keyin keladi.

Kim desaki, mening har narsam jamdir,

Bilingki, u inson rostanam xomdir.

Yo asling kabi bo‘l, yo ko‘ringaning kabi bo‘l!

Aql qo‘ydir, nafs bo‘ri, iymon esa cho‘pon. Agar iymon kuchli bo‘lmasa nafs aqlni yoydi.

Hayotda muvaffaqiyatga erishish uchun uch narsa kerak: diqqat, intizom va harakat.

Tilingdan oldin qalbingni tarbiya qil. Chunki soʻz qalbdan kelib tilinga chiqadi.

Insonlardagi goʻzallik bu yuzdir, yuzdagi goʻzallik koʻzdir, ammo, insonni inson qiladigan uning tilidan chiqqan soʻzdir.

Aziziddin Nasafiy asarlaridan hikmatli parchalar.

Odamzodning uch toifasi

Bilgilki, Olloh taolo odamlarni turlicha yaratibdi va har biriga turli ishga isteʼdod ato etibdi. Olam nizomi barqarorligi uchun shunday boʻlishi kerak edi. Shaharlik kerak, qishloqlik ham. Bazzoz ham kerak, baqqol ham va hokazo. Agar barchaga bir xil isteʼdod berganida edi, olamda munazzamlilik (yaʼni tartib) boʻlmasdi. Shu bois donishmand har bir kishini qaysi ish uchun yaratilgan boʻlsa, oʻshanga safarbar qilmogʻi kerak.

Muxtasar qilib aytsak, ayrimlarning himmati oliydir va ayrimlarniki bunday emas. Shu sababdan, kimi dunyoni, kimlari uqboni (oxirat), kimi esa Mavloni (Olloh taoloni) istaydi. Odamlar shu uch toifadan boʻlak emas. Mavlo izlaydigan toifa himmatbaland kishilardir. Ular odamlarning eng yaxshisi va shu toifa ahli solikdir. Minglab kishidan u ulugʻroqdir, qolgan ikki toifa u tufayli hayot kechiradi va u sababli tarbiyat topadi. Ey darvesh! Kimki suluk qilsa, unga toʻrt narsaning maʼrifati zarurdir: birinchisi, maqsadning, ikkinchisi, maqsad tomon boruvchining, uchinchisi, maqsadga eltuvchi yoʻlning, toʻrtinchisi, hidoyatga eltuvchi — shayx yo pirning maʼrifati. Bu toʻrt narsani bilmasdan suluk muyassar boʻlmas. Bilgilki, solikning maqsadi va maqsudi oʻz kamolidir. ¹

... shunday yoʻl tutginki, qalbing saxovat va hikmatga toʻlgan boʻlsin, ezgulik sohibi boʻlgin... qalbing haqgoʻylik (rostlik) va ezgulik bilan bezansin, toki inson degan ulugʻ nomga munosib boʻlsang doʻzax azoblaridan qutulasan. Sening haqiqating (mohiyating) toʻgʻrilik va xayrli ishlar ijod qilish boʻlsin. ²

Alisher Navoiy “Mahbub ul-qulub”.

¹ Aziziddin Nasafiy Komil inson

² Aziziddin Nasafiy. Zubdat ul haqoyiq – (Haqiqatlar qaymogʻi). N. Komilov tarj. –T. “Kamalak”. 1996.

13-tanbeh. “Karam – bir jafokashning og‘ir yukini ko‘tarmoq va yukni mashaqqatidan uni qutqarmoq. Karam – birovning tikanli yukini ko‘tarmoq va tikan sanchilishidan guldek ochilmoq va shu qilgan ishi haqida qayta og‘iz ochmaslik. Hech qachon minnat qilmaslik va aslo yuziga solmaslikdir”.

30-tanbeh. “Kimki birov bilan do‘st bo‘lsa yoki do‘stlik da‘vosini qilsa, u o‘ziga ravo ko‘rmaganni, do‘stiga ham ravo ko‘rmasligi kerak”.

Sabr zikrida – sabr nafsoniy istaklar va jismoniy lazzatlardan o‘zini chiqarmoq va ibodat mashaqqati bilan nafsini hibs qilmoq va riyozat qattiqligida qadamini sobit qo‘ymoqlikdir. Sabr achchiqdir, lekin foydali, qattiqrog‘dir, lekin ziyon-zahmatni daf qiluvchi. Sabr – rohat-farog‘at kaliti va tugunlar yechimi. Sabr do‘stdir, lekin suhbatlari zerikarli, ammo murodga yetkazuvchi. Sabr sekin yuradigan ulovdir, ammo manzilga eltuvchidir. Sabr – achchiq so‘zlab, ta‘bni xira qiluvchi nasihatchi, lekin u tufayli oxirida maqsad hosil bo‘ladi. Dorisi achchiq tabib, bemor undan ozorlanadi, ammo oxirida sihat topadi. Har baloga giriftor bo‘lgan, joni xavf ostida qolgan odamning hayoti sabr tufayli ozod, har noumidning tushkun ruhi sabr tufayli quvvat topadi.³

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Aziziddin Nasafiy Komil inson kitobi. 232 bet. 2021-yil.
2. Aziziddin Nasafiy. Zubdat ul haqoyiq – (Haqiqatlar qaymog‘i). N. Komilov tarj. –T. “Kamalak”. 1996.
3. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub (Qalblarga mahbub hikmatlar va hikoyatlar). Hozirgi o‘zbek tiliga tabdil. – T.: Sano-standart, 2018.
4. Abu Nasr Farobiy. “Fozil odamlar shahri”. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2004.

³ Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub (Qalblarga mahbub hikmatlar va hikoyatlar). Hozirgi o‘zbek tiliga tabdil. – T.: Sano-standart, 2018.